

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЮЖНО-КАЗАХСТАНСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ М.АУЭЗОВА

ФЕРГАНСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ ОБЩЕСТВЕННОГО
ЗДРАВОХРАНЕНИЕ

МАТЕРИАЛЫ

Международной научной конференции

**“ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ФИЗИКИ КОНДЕНСИРОВАННЫХ
СРЕД”**

Фергана, 24-май, 2024 год.

Секция «Получение полупроводниковых материалов и их использование»

конференции «Оптические и фотоэлектрические явления в полупроводниковых микро- и наноструктурах» Фергана-2023.c.26-27.

7. Onarkulov, M., & Gaynazarova, K. (2024, March). Effect of chalcogens on Bi-Sb (Se-Te) based alloys made under inert gas pressure. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3045, No. 1). AIP Publishing.

**POLIKRISTALL YUPQA STRUKTURALARDA, ANOMAL FOTOMAGNIT
KUCHLANISH MAVJUDLIGI O'RGANISH**

Sh.A. Yuldashev, O.A Marasulova

Farg'onan davlat universiteti

shohjahon6566@mail.ru

Annotatsiya: Olingan natijalar, vakuumli bug'lanish natijasida hosil bo'lган uch selenli surma amorf yupqa pardalarida har doim yuqori nuqsonlar kontsentratsiyasi mavjudligini ta'kidlashga imkon beradi. Uch selenli surma plyonkalari va boshqa yarimo'tkazgichli, kristall bo'limgan yupqa pardalarida tuzilmalarining xususiyatlarini o'rganish, keyinchalik organik yoki tirik moddalar kabi yanada murakkab materiallarning xususiyatlarini tushunishga urinishlar uchun kerak.

Kalit so'zlar: Polikristall, amorf, xalkogenid, anizotrop bug'latish, bir jinsli bo'limgan, molekulyar oqim, radiatsion.

Polikristall materiallar yarimo'tkazgichlar fizika va texnikasi sohasida eng muhim istiqbolli yo'naliishlardan hisoblanadi. Bunday materiallar bir jinsli emas (BJE) geterogen strukturaga ega bo'lib, ularning mikrozarrachalari nostandard formaga ega bo'ladi. Mikro zarracha (MZ) chiziqli o'lchamlari $10^{-5} - 10^{-4}$ sm tartibida bo'ladi. Mikrozarrachalar orasida ularni bog'lovchi oraliq qatlamlar bo'lib, ularning xususiyati va stixiometriyasi material mikro zarrachasindan tubdan farq qiladi. Hattoki mikro zarracha va oraliq qatlam elektr o'tkazuvchanligi ham keskin farq qiladi. Shu sababli mikro zarracha va oraliq qatlam o'ziga xos har xil strukturalar kontaktini hosil qiladi. Oraliq qatlam yuqori qarshilikli soha deb, mikrozarracha qarshiligi undan kamroq qarshilikli deb hisoblanadi. Lekin ba'zi hollarda teskari holat

Секция «Получение полупроводниковых материалов и их использование»

ham kuzatilishi mumkin. Oraliq qatlam va mikrozarracha o'tkazuvchanligining keskin farq qilishi, mikrozarrachalar chegarasida har xil p-n-o'tishlarni vujudga keltiradi. Shu bilan birga ikki qo'shni mikro zarrachalar orasidagi yuqori qarshilikli soha potensial to'siqni vujudga keltiradi (MOP, izotip geteroo'tishlar va boshqa ko'rinishdagi lokal mikrobaryerlar) Bunday BJE strukturalarning (ayniqsa ularning yupqa pardalarini o'rganish, polikristall yarimo'tkazgich va dielektriklarga xos muhim xususiyatlarni, hodisalar va effektlarni aniqlashga imkoniyat yaratadi. Chunki, BJE yarimo'tkazgichlar va dielektriklar negizida mutloqo yangi funksional imkoniyatga ega asbob va qurilmalar yaratilgan shu bilan barcha yarimo'tkazgich materiallardagi BJEliklarni o'rganish va qurilmalar yaratilgan istiqbolda yana ko'p asboblar yaratishga texnik va texnologik asos yaratadi. Yarimo'tkazgichlarning BJE sohalarida hosil bo'ladigan mikrogeteroo'tishlar va boshqa potensial to'siqlardan iborat polikristall strukturalar yoritilganda ventil (harakterdagi) tabiatdagi foto E.YU.Klar hosil bo'lib, har bir mikrokristall tizimi mikrofotoelement vazifasini bajarib, ularning soni 1sm uzunlikda 10^5 donaga yetadi. Tabiiyki BJE strukturadagi mikrofotoelement tizimi yoritilgandagi elementar E.YU.K qo'shilib yetarli katta foto E.YU.Kni vujudga keltiradi [1,2]. Polikristall BJEliklarda mikrozarrachalarning chiziqli o'lchamlari mikronlar tartibida bo'lsa, amorf yarimo'tkazgichlarda mikrokristalchalar o'lchamlari angstremlarda bo'ladi. Bundan ko'rindiki amorf yarimo'tkazgichlarda BJE liklarning "ideal" yuqori tartibi kuzatiladi. Bunday amorf BJE yarimo'tkazgich birikmalarni xalkogenidlar negizida sintez qilish mumkin [3,4] va ularning BJE amorf yupqa pardalarida anomal fotoelektrik, fotomagnit va shunga o'xshash galvanoelektrik hodisalar anomalligi va anizatropiyalarini kuzatish mumkin [5].

Yarimo'tkazgich BJE amorf plyonkalarda, fotoelektrik va fotomagnitik o'lchovlar o'tkazildi. Volt-amper harakteristikalari $\sim 10^{-1}$ V/sm gacha bo'lgan elektr maydonlariga qadar chiziqli. Anomal fotoelektrik effekt va anomal fotomagnit effektlarning lyuks-voltli harakteristikalari subchiziqli bo'lib, chiziqlilikdan ogish

Секция «Получение полупроводниковых материалов и их использование»

$8 \cdot 10^5$ lyuks yoritish darajalarida kuzatiladi. Fotomagnit kuchlanish kattaligi, chiziqli ravishda $8 \cdot 10^4$ E gacha ortadi, magnit maydonga sezgirligi 3 mV/E .

Anomal fotovoltaik va fotomognit kuchlanishlarning yorug'lik intensivligiga qarab o'zgarish qonuniyatları $U_{AFK}(V)$, $U_{FME}(V)$ eksperimental egri chiziqlari, oq nurda qayd etildi. $H=1\text{kE}$ dan $H=5\text{kE}$ gacha bo'lgan egri chiziqlar, doimiy magnit maydonida qayd etilgan.

Fotomagnit tadqiqotlar bo'yicha olingan eksperimental natijalar, fotomagnit effekt nazariyasi doirasida p-n o'tishlarida ko'rib chiqiladi. Elektron-teshik (p-n) – o'tish uchun fotomagnit effekti nazariyasiga ko'ra $U_{FME}(V)$ bog'liqlikning, to'yingan sohasi bo'lishi kerak, $U_{FME}(H)$ da esa u magnit maydon kuchlanishi to $H=10^5\text{E}$ gacha qiymatiga qadar chiziqli bo'ladi.

Shunday qilib, olingan natijalar, vakuumli bug'lanish natijasida hosil bo'lgan uch selenli surma amorf plyonkasida har doim yuqori nuqsonlar kontsentratsiyasi mavjudligini ta'kidlashga imkon beradi. Ular, Fermi darajasi qat'iy belgilangan va barqaror pozitsiyani egallagan darajada lokalizatsiya holatlarini ($\sim 10^{20} \text{ sm}^{-3}$) yuqori zichligiga olib keladi. Shu munosabat bilan plyonkalarni, uch selenli surma bilan legirlash imkoniyati yo'q degan fikr shakllandi. Shu sababli, vakuum bug'lanishida olingan uch selenli surma plyonkalarida mavjud bo'lgan surma yoki selennenig ortiqcha miqdori, ularning xususiyatlarini sezilarli darajada o'zgartiradi deb taxmin qilish mumkin. Uch selenli surmaning amorf plyonkalari, aralashmalar va radiatsion nurlanish ta'siriga sezgir emas. Yuqori voltli fotovoltaik effekti (AFK effekti) yupqa amorf, uch selenli surma plyonkalari bir xil bo'lmasligi, ko'p qatlamlar tuzilmalardir. Shu bilan birga, n- va p- tipdagisi qatlamlar vaqt-vaqt bilan o'zgarib turadigan, super ko'p qatlamlilik tuzilmalarida, taqiqlangan zonasidagi doimiy qiymatga ega, ammo bir qatlamdan ikkinchisiga o'tishda energiya bo'yicha, yuqoriga yoki pastga siljiydi. Biroq, boshqa mumkin bo'lgan tushuntirishlarni istisno qilish uchun batafsilroq tadqiqotlar o'tkazish kerak. Amorf plyonkalar, uzunligi va qalinligi bo'yicha bir xil emas, bundan tashqari ular har xil o'tkazuvchanlikka ega, o'zgaruvchan qatlarni ifodalaydi, keyin super ko'p qatlamlilik tuzilmalarining parametrlari uch selenli

Секция «Получение полупроводниковых материалов и их использование»

surmaga asoslangan amorf plyonkalarning asosiy xususiyatlarini sifat jixatidan aniqlay oladi. Bunday materialarda, umuman boshqacha hodisalarini ham kutish mumkin [5]. Uch selenli surma plyonkalari va boshqa yarimo'tkazgichli, kristall bo'lмаган plyonka tuzilmalarining xususiyatlarini o'рганиш, keyinchalik organik yoki tirik moddalar kabi yanada murakkab materiallarning xususiyatlarini tushunishga urinishlar uchun juda foydali bo'lishi mumkin.

Amorf xalkogenid Sb_2Se_3 yupqa pardalarida anomal yuqori fotokuchlanish va fotomagnit kuchlanish hodisalarining mavjudligi aniqlandi va dastlabki tadqiqotlar olib borildi. Bu tadqiqotlar negizida, amorf xalkogenidlarining yupqa pardalaridan generator tipidagi foton qabul qiluvchilar yasashda foydalanish mumkinligi ko'rsatildi. Bunday generator tipidagi foton qabul qilgichlar radiatsiya ta'siriga chidamli bo'lib, parametrlaridagi degradatsiya (eskirish, vaqt o'tgan sari o'zgartirish) darajasi past bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Онаркулов, К. Э., Нурдинова, Р. А., Юлдашев, Ш. А., & Юлдашев, А. А. (2022). Разработка теплопреобразователя на основе аномального фотовольтаического эффекта.
2. Egamberdievich, O. K., Abrorovich, Y. S., Abduvositovich, Y. A., & Qizi, Y. S. A. (2022). Determination of Microparameters of Halcogenide Thin Movies. *Journal of Optoelectronics Laser*, 41(5), 523-530.
3. Onarkulov, K., Yuldashev, S., & Yuldashev, A. (2022). ФОТОМАГНИТНЫЙ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЬ. *Science and innovation*, 1(A4), 47-51.
4. Yuldashev, S. (2022). ХАЛЬКОГЕНИД ЎПҚА ПАРДАЛАРИДА АФК-ЭФФЕКТ. *Science and innovation*, 1(A6), 530-535.
5. Онаркулов, К., & Юлдашев, А. (2023). ГЕЛИООПТРОННЫЙ ИСТОЧНИК НАПРЯЖЕНИЯ. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (8), 30-34.
6. Yuldashev, A. (2022). OPTOTRANSFORMER. *Science and Innovation*, 1(7), 876-882.
7. Юлдашев, Ш. А. (2023, November). ИССЛЕДОВАНИЕ ЭФФЕКТА АФН В НЕОДНОРОДНЫХ ТОНКИХ ПЛЕНКАХ. In *Fergana state university conference* (pp. 283-286).
8. Onarqulov, K., & Yuldasheva, S. (2023, November). XALKOGENID BIR JINSLI BO'LМАGAN YUPQA PARDALARIDA AFME-EFFEKTNI O'RGANISH. In *Fergana state university conference* (pp. 64-64).

**QUYOSH ENERGIYASI ELEMENTLARI ENERGETIK TAVSIFFLASH VA
ULARNI TANLASH**

²G.F. Jo'rayeva, ¹Sh.A. Yuldasheva, ²M.Y. Siddiqov, ²N.L. Ismoilov